

**Bino va inshootlarning texnik holatini  
o'rganish bo'yicha  
SHARTNOMA № 5.**

2022 yil « 10 » yanvar.

Qarshi shahri.

Bizlar, keyingi o'rinlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladigan Qazsi  
Davlat Universiteti ning nomidan, Nizoma sosida aoliyat  
yurituvchi director (rahbar) D. Nohiyev bir tomon, keyingi o'rinlarda  
«Bajaruvchi» deb yuritiladigan «Qashqadaryo viloyat Qurilish soxasida xududiy nazorat inspeksiyasi»  
nomidan, Nizom asosida faoliyat yurituvchi boshliq **Panjiyev O'lmas Xamzaevich** ikkinchi tomon bo'lib,  
O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolik» kodeksi va «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining  
shartnomaviy-xuquqiy bazasi to'g'risida»gi Qonuniga asosan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdik.

**1. Shartnomaning predmeti.**

1.1. «Buyurtmachi», «Bajaruvchi» ga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 20 avgustdagi «Ob'ektlarda davlat qurilishi nazoratini amalga oshirish bo'yicha ma'muriy reglament hamda ob'ektlarning xavf-xatarlar toifalari tasnifini tasdiqlash to'g'risida» gi 496-sonli Qarorining 4-bobiga asosan «Bino va inshootlarni instrumental texnik tekshiruvdan o'tkazish tartibi» talablariga muvofiq qurilish sohasida amalda bo'lgan me'yoriy hujjatlar va texnik reglamentlarda belgilangan qoidalar asosida ishlarni bajarishni topshiradi. «Bajaruvchi» Qurilish jarayonida chiqarilgan  
ikkilamchi materiallarni zararli-zararsizligi bo'yicha.

ob'ektning texnik holatini, mexanik va fizikaviy (buzib yoki buzmasdan) xossalarini priborlar va qurilmalarda me'yoriy hujjatlar va texnik reglamentlarda belgilangan talablarga muvofiq instrumental texnik tekshiruvdan o'tkazish ishlarini Qashqadaryo viloyat Qurilish sohasida hududiy nazorat inspeksiyasining «Bino va inshootlarni texnik holatini o'rganish va qurilish sinov laboratoriyasi» bulimida yoki joyida bajarish majburiyatini oladi.

1.2. «Bajaruvchi» shartnoma imzolangan kundan boshlab laboratoriya sinov tahlillarini bajarishga kirishadi, shu bilan birga foydalaniladigan barcha qurilish materiallari, buyumlar va konstruksiyalarni sifatini va GOST, RST, TSH talablariga mosligi sinaydi va tahlil qiladi.

1.3. «Buyurtmachi» «Bajaruvchi»ga qurilish industriyasi va qurilish ob'ektlari uchun zarur bo'lgan va boshqa qurilishga taalluqli hujjatlarni o'z vaqtida yetkazib berish va bajarilgan ishlar uchun to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi

**II. Qurilish ob'ektlarida laboratoriya sinov ishlari uchun o'zaro hisob-kitoblar tartibi.**

2.1. «Bajaruvchi» ning xizmat haki instrumental texnik tekshiruv ishlarini baholashning yagona hisoblash tartibi asosida bajarilgan ishlar uchun hisoblanadi va ikki tomonlama tuzilgan dalolatnoma va hisob-faktura asosida bajarilgan ish uchun 3022661 (sakkiz million yigizma  
ikki ming olti yuz oltmish oltiz) so'mni tashkil qiladi.

2.2. «Buyurtmachi» mazkur shartnomani imzolagan kundan boshlab 5 (besh) kun muddat ichida to'lanishi lozim bo'lgan so'mning 15 foizi miqdoridagi bo'nakni (avans) 1203399 (bir million ikki yuz uch ming uch  
942 to'qson to'qqiz) so'm miqdorida «Bajaruvchining» ning hisob raqamiga o'tkazib beradi.

2.3. «Buyurtmachi» bajarilgan ishlar bo'yicha to'lovning qolgan qismini bajarilgan ishlar hisob-fakturasiga asosan texnik xulosa hisobotini olishdan oldin to'lab berish majburiyatini oladi.

**III. Taraflarning javobgarligi va nizolarni hal qilish tartibi.**

3.1. Shartnomaviy majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun taraflarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasi «Fuqarolik» kodeksi va «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-xuquqiy bazasi to'g'risida»gi Qonuni hamda amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

3.2. «Buyurtmachi» bajarilgan ishlar to'lovini shartnomaning 2,3 – bandi (Hisob-faktura sanasi) da belgilangan sanadan kechiktirilganligi uchun har bir kechiktirilgan kun uchun to'lov kechiktirilgan so'mning 0,4 foizi miqdorida penya to'laydi, lekin bunda penyaning umumiy so'mmasi to'lanmagan summaning 50 foizidan oshmasligi lozim.

3.3. "Bajaruvchi" tomonidan shartnomada ko'rsatilgan vaqtda ishlar bajarilmasa, buyurtmachiga muddati o'tgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,4 foizi miqdorida penya to'laydi, lekin bundan penyaning umumiy so'mmasi bajarilmagan ish qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

3.4. Neustoyka va zararni to'lash taraflarni shartnomaviy majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

3.5. Mazkur shartnomani bajarish davrida yuzaga kelgan nizolar tomonlar o'rtasida muzokaralar yo'li bilan talabnoma yuborish orqali hal qilinadi, agar bunday tartibda xal etilishiga erishilmasa, sud yuli bilan xal etiladi.

#### IV. Fors – Major holatlari.

4.1. Taraflar o'zlariga bog'liq bo'lmagan favqulodda, yengib bo'lmas kuch (fors-major holatlari) ta'sirida o'zlarining shartnomaviy majburiyatlarini bajarmaganliklari yoki yetarli darajada bajarmaganliklari uchun javobgarlikdan ozod kilinadilar.

Bu holatda majburiyatlarini bajarish muddatlari fors-major holatining davom etish muddatiga mutanosib tarzda uzaytiriladi. Fors-major holati 3 oydan ortik muddat davom etadigan bo'lsa, shartnoma taraflarning birining tashabbusi bilan bekor qilinishi mumkin.

Fors-major holati yuz berganligi vakolatli davlat organlarining ma'lumotnomasi bilan tasdiqlanadi.

V. Shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish tartibi.

5.1. Ushbu shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar ular yozma ravishda rasmiylashtirilgan va taraflarning vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan taqdirda haqiqiy hisoblanadi.

5.2. Shartnomani muddatidan oldin bekor qilishga taraflarning kelishuviga muvofiq yoki O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra, yetkazilgan zarar qoplangan holda yo'l qo'yiladi.

5.3. Shartnomani bekor qilish va o'zgartirish haqida qarorga kelgan taraf boshqa tarafga 30 kun oldin yozma bildirishnoma yuborishi shart.

5.4. Mazkur shartnoma bo'yicha amalda bajarilgan jami ishlar so'mmasiga qarab shartnoma so'mmasining miqdori o'zgarishi mumkin, bunda bu holatda penya hisoblangan taqdirda, penya so'mmasini hisoblash o'zgarigan miqdor asosida amalga oshiriladi.

5.5. Mazkur shartnoma ikki nusxada tuzildi. Shartnomaning ikkala nusxasi ham bir xil yuridik kuchga ega bo'lib, bir nusxasi «Buyurtmachi»da va bir nusxasi «Bajaruvchi»da saqlanadi.

5.6. Shartnomaning amal qilish muddati 2022 yil 31 12 gacha.

#### TARAFLARNING YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI:

##### «Buyurtmachi»

Qarshi DU  
Bajaruvchi. V. J. 17- yil  
Q. R. 75-223-00-56.  
U. I. 12400810860401709410007900.  
U. I. 12400810860401709410007900.  
F. I. 12400810860401709410007900.  
T. I. 12400810860401709410007900.  
Boshliq: D. Nobiyeu

M.U

97-953-05-62  
Qurbon aka  
91-954-06-59  
Suvon aka

##### «Bajaruvchi»

Qashqadaryo viloyat Qurilish sohasida hududiy nazorat inspeksiyasi  
Qarshi shahri Islom Karimov ko'chasi - 60A uy  
H/r: 20210000200673602001  
MFO: 00150 Bank: Milliy bank Qarshi shahri.  
INN: 201599704 OKED:71110  
Tel: 75-223-26-77, 75-223-26-31

Boshliq: O'.H. Panjiyev.

M.U

#### HUQUQSHUNOS XULOSASI:

Mazkur shartnoma loyihasi O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida" gi qonuni va boshqa amaldagi qonun normalari talablariga mos keladi.

Qashqadaryo viloyat Qurilish sohasida hududiy nazorat inspeksiyasi bosh huquqshunosi:

Sh. Raxmanov.